



АHKOM ИLMIGA OИD TAFSIRLAR HAQIDA

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik fakulteti Dinshunoslik yo'nalishi

2-bosqich talabasi Omonova Ma'mura

Tel nomer: +99888 715 19 03

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tafsir ilmlari, tafsirlarning turlari va ularga berilgan ta'riflar hamda ularning mohiyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *tafsir, aqliy, naqliy, botiniy tafsir, ahkom ilmi*

O'n to'rt asr oldin tushgan Qur'oni karim o'tgan davr mobaynida ko'plab soha olimlarining o'rganish obyektiga aylanib ulgurgan. Ular ilohiy Kalomni o'z bilim va tafakkurlaridan kelib chiqib, sharhlaganlar va izohlar berganlar. Natijada aqliy tafsirlar (at-tafsir bir ray') deb nomlangan tafsir turlari vujudga keldi.

Ikkinchisi sifatida esa tafsir ilmi dastlab, hadislar negizida paydo bo'lishi, vaqt o'tishi bilan mustaqil ilmga ham aylanishi, shu tarzda yildan yilga tafsir ilmi taraqqiy etib, hatto ushbu ilmning o'zida yangi yo'nalishlar va sohalar paydo bo'lishini aytish mumkin. Mana shunday yo'nalishlardan biri aqliy tafsirlar bo'lib, ushbu soha hozirda juda keng taraqqiy etgandir. O'z davrida sahobalar ham oyatni oyat, hadis bilan sharhlar edilar. Agar Qur'on va hadisdan javob topa olmasalar oyatlarga o'z aqllari bilan izoh berganlar. Ushbu holatlar bevosita tafsirlarga ham ta'sir ko'rsatdi va natijada turli tuman tafsir kitoblari yozildi. Masalan, tarix va qissa yoki fiqhiy oyatlari keng yoritilgan, falsafiy, grammatik jihatlariga alohida urg'u berilgan tafsirlar birga ushbu ilmlarning aralash holda yozilishini ham kuzatish mumkin. Demak, tafsirlarni biror sohaga mansub deb qabul qilish uning o'sha sohadagi ma'lumotlari ko'proq bo'lishi bilan bog'liq ekan.

Shunday qilib, oyatlarni tafsir qilishning uch xil yo'li mavjud. Bular:

- naqliy;



- aqliy;
- naqliy va aqliy bir xilda jamlangani.

Ushbu uch yo‘l o‘z navbatida mufassirning ilmiy qarashlari, mazhabi va dunyoqarashidan kelib chiqib, yana turli yo‘nalishlarga bo‘linadi. Ta’kidlash kerakki, bular orasida aqliy tafsirlar eng keng tarqalgan turidan biri bo‘lib, uning o‘zi ham bir qator yo‘nalishlarga bo‘linadi. Ularni quyida ko‘rib chiqish mumkin.

Aqliy yo‘nalishdagi tafsirlar ham o‘z navbatida to‘rt turga bo‘linadi:

- 1. Lug‘aviy tafsirlar.**
- 2. Ahkom ilmiga oid tafsirlar.**
- 3. Kalomiy (aqidaviy) tafsirlar.**
- 4. Botiniy tafsirlar.**

Ahkom ilmiga oid tafsirlar. Ma’lumki, fiqh ilmi shariatning amaliy masalalari bilan bog‘liq bo‘lib, unda islom manbalarida kelgan hukmlar bayon qilingan bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, fiqhiy tafsirlarda ham fiqh hukmlari, ularning istinbot qilish yo‘llari keng yoritiladi va boshqa mazhablarga raddiyalar beriladi. Bu borada Imom as-Suyutiyning quyidagi gapi keltiriladi: “Faqih o‘z tafsirida tahoratdan boshlab oyatga taalluqli bo‘lmagan fiqhiy masalalarni yoritishga kirishib ketadilar. Shuningdek Imom Qurtubiy kabi boshqa mazhablarga raddiya beradiganlari ham bor”¹.

Qur’onda kelgan ba’zi oyatlar aniq bir hukmga dalolat qilmaganidek, ayrim hadislarning zaif va sog‘lomligi borasida ixtiloflar ham uchrab turadi. Bunday holda olimlar o‘rtasida munozara bo‘lishi tabiiy hol. Shundan kelib chiqib, fiqhiy

¹ Jaloliddin Suyutiy. Al-Itqon fi ulum-al Qur’an. – Bayrut: Muassasatu rissalati nashiruna, 2008



masalalarda ham bahslar davom etaveradi. O‘z davrida sahobalar ham Payg‘ambar (s.a.v.) vafotlaridan keyin ayrim masalalarda ijtihod qila boshladilar. Natijada ularning tafakkur va bilim darajalariga bog‘liq holda turli qarashlar ham paydo bo‘ldi. Jumladan, Baqara surasining 234-oyati – “Sizlardan vafot etib juftlarini qoldirganlarning ayollari o‘zlaricha to‘rt oy-u o‘n kun kutarlar”² bilan Taloq surasining 4-oyati – “Homiladorlarning muddati homilalarini qo‘ygunigachadir”³ – borasida sahobalar o‘rtasida ikki xil qarash bo‘lgan. Ali ibn Abu Tolib va Ibn Abbos (r.a.) ushbu ikki oyatdan kelib chiqib, eng uzoq muddat – to‘rt oy-u o‘n kun yoki homilani qo‘yishdan birini tanlab, iddani belgilaganlar. Ibn Mas‘ud, Abu Hurayra va Abu Salamalar esa homilani qo‘yishni tanlaganlar. Bunga dalil sifatida Taloq surasining Baqara surasidan keyin nozil bo‘lgani hamda Payg‘ambar (s.a.v.) ning vidolashuv hajida eri vafot etgan va ayni paytda homilador bo‘lgan Subaya al-Aslamiyning hadislarini keltiradilar. Vidolashuv haji paytida Subayaning eri vafot qiladi. Ko‘p o‘tmay u farzandini ham dunyoga keltiradi. Nifosdan poklangach, bezanishni boshlaydi. Shunda Abdud Dor qabilasidan Abus Sanobil ibn Ba‘kak degan kishi uning oldiga kirib: “Sen nega bezanib olding, turmush qurmoqchimisani? Allohga qasamki, to‘rt oy-u o‘n kun o‘tmagunicha turmushga chiqolmaysan”, - deydi. Rivoyatning davomida Subayyaning quyidagi so‘zlari keltiriladi: “Kech tushganida ust-boshimni kiyib, Rosululloh (s.a.v.)ning oldilariga keldim va ushbu masalaning hukmini so‘radim. Shunda U zot homilamni qo‘yganimda iddadan chiqqanimni aytib, ruxsat berdilar va xohlasam turmushga chiqishim mumkinligimni bildirdilar”.

Fiqhiy munozaralar tobeinlar davrida ham keng tarqalib, faqihlar orasida shu darajada kuchayib ketdiki, hijriy birinchi asr oxiri va ikkinchi asr boshlarida paydo

² Qur oni karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri /Tarjima va tafsir muallifi: A.Mansur. -Toshkent: TIU, 2009 (Baqara surasi 234-oyat)

³ Qur oni karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri /Tarjima va tafsir muallifi: A.Mansur. -Toshkent: TIU, 2009 (Taloq surasi 4-oyat)



bo'lgan mazhablarning bahs-munozara markaziga aylandi. Har bir mazhab davomchilari qoidalaridan kelib chiqib, o'z qarashlarini isbotlashga kirishdilar. Shu tarzda fiqhiy mazhab qoidalariga binoan tafsirlar yozilishi boshlandi. Natijada tafsir bilan fiqh kitoblari o'rtasida katta farq ham qolmadigan darajaga yetdi. Biroq bilish lozimki, ushbu mazhablarning aqidalari va istinbot qoidalari to'g'ri bo'lgani to'rtta hisoblanadi. Bular hanafiylar, molikiylar, shofiiylar va hanbaliylardir.

Hanafiy mazhabidagi fiqhiy tafsir kitoblaridan quyidagilarni sanab o'tish kerak:

1. "Al-Jassos" nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Bakr ar-Roziy (vaf. 270 h.y.)ning "Tafsir ahkomul Qur'on";
2. Mullo Juyunning "At-Tafsirotul Ahmadiya fi bayonil oyatish shar'iya" asarlari.

Molikiy mazhabidagi fiqhiy tafsirlar:

3. Abu Bakr ibn al-Arabiy (vaf. 543 h.y.)ning "Tafsir ahkomul Qur'on";
4. Abu Abdulloh al-Qurtubiy (vaf. 671 h.y.)ning "Al-Jomi liahkomil Qur'on" asarlari.

Shofiiy mazhabidagi fiqhiy tafsirlar:

5. Jum'a Abu Bakr al-Bayhaqiyning Imom Shofiiy dalillaridan iborat bir jildlik "Ahkomul Qur'on" asari;
6. "Ilkiyaa alHaros" nomi bilan mashhur bo'lgan Abul Hasan at-Tabariy (vaf. 405 h.y.)ning ikki jildli "Ahkomul Qur'on";
Jaloluddin as-Suyutiyning "al-Iklil fi istinbotit Tanzil»;
7. Ahmad ibn Yusuf al-Halabiy as-Samining "al-Qovlul vajiz fi ahkomil Kitobil aziz" asarlari.

Hanbaliy mazhabidagi fiqhiy tafsir kitoblari:



8. Abu Ya'lo Muhammad ibn al-Husayn al-Farroning "Ahkomul Qur'on»;
9. Ibn Odil al-Hanbaliyning "Oyatul ahkom" asarlari.

Bugungi kunda ham fiqhiy oyatlarga oid ko'plab tafirlar yozilmoqda. Biroq ularda biror bir mazhabga bog'liqlikdan ko'ra, dalillar yoritishlik uslubini ko'rish mumkin. Jumladan:

10. Muhammad Siddiq Hasanning bir jildli "Naylul marom fi tafsiri oyatil ahkom";
11. Muhammad Ali as-Sobuniyning ikki jildli "Ravoiul bayon tafsiru oyatil ahkom";
12. Muallifi keltirilmagan, biroq Muhammad Ali as-Siyas tomonidan tahrir etilib, nashr qilingan "Tafsir oyatil ahkom";
13. Manno' al-Qattonning "Tafsir oyatil ahkom";
14. Doktor Kamol Juda Abl Maotiyning "Dirosot fi tafsiri ba'zi oyatil ahkom" asarlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tafsir ilmiga kirish. Maxsudov D.R. -O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: "Qaqnus" nashriyoti, 2019.
2. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Sano standart, 2021.
3. Jaloliddin Suyutiy. Al-Itqon fi ulum-al Qur'an. – Bayrut: Muassasatu rissalati nashiruna, 2008
4. <https://hidoya.uz>